ISLOHOTCHILIK HARAKATINING MANBASHUNOSLIK TAHLILI

Sharifjon Ganidjanovich ISLAMOV
Ilmiy xodim
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti
Toshkent, O‘zbekiston
sharqregister@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan islohotchilik harakati qo‘lyozma, toshbosma manbalar asosida davr ishtirokchilarining mulohazalari orqali tahlil etilgan.

XX asr boshlarida matbuot nashrlarida ko‘p kuzatilgan “jadidchilik harakati” XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi islohotchilik harakatini to‘laligicha o‘zida aks ettirgandek tasavvur hosil qilsa-da, biroq XIX asr oxirida mahalliy ulamolar tomonidan risolalar shaklida chop etilgan islohotchilik g‘oyalari va mulohazalarini rivojlantirganlar aynan jadidlar ekanligi yoritib berilgan.

Tayanch so‘zlar: Islohotchilik harakati, jadidchilik harakati, isloh, izoh, qo‘lyozma, toshbosma nashr, jadidchilik, mahalliy ulamo.

ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕФОРМАТОРСКОГО ДВИЖЕНИЯ

Шарифжон Ганиджанович ИСЛАМОВ
Научный сотрудник
Институт востоковедения
им. Абу Райхана Беруни
Ташкент, Узбекистан

Аннотация

В статье на основе рукописных и литографических источников анализируется мнение участников реформаторского движения, возникшего в Туркестане в конце XIX - начале XX века.

«Джадидское движение», часто наблюдавшееся в печати начала XX в., создает впечатление, что оно полностью отражает реформистское движение конца XIX - начала XX вв. Фактически в статье подчеркивается, что именно джадиды развили реформистские идеи и взгляды, опубликованные в виде брошюр местными учеными в конце XIX века.

Ключевые слова: Реформаторское движение, джадидизм, реформа, аннотация, рукопись, литография, джадидизм, местные улемы.

Islohotchilik harakatiga doir manbalarni tadqiq etish jarayonilda o‘rganilayotgan obyektda yirik ikki guruh mavjudligi kuzatiladi. Ularni shartli

ravishda “o‘ng” va “chap” tomon guruhlariga ajratamiz. O‘ng tomon guruhiga mansub vakillar asosan mahalliy ulamolar jamoasi bo‘lib, jamiyatda mansab va bilim doirasi bo‘yicha ajralib turuvchi shaxslardir. Boshqa so‘z bilan aytganda, “o‘ng” tomondagi guruh vakillarini mahalliy sharoitda diniy-ijtimoiy g‘oya va vaziyatlarni rivojlanishi (evolyutsiyasi) natijasida vujudga kelgan deyish mumkin. Ularning soni haqida o‘sha davrdagi mashhur matbuot nashrlaridan “*Al-isloh*”, “*Al-Izoh*” va boshqa nashrlar orqali berilgan maqolalar orqali tasavvurga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek, isloh masalalariga oid ko‘plab nashr materiallari mavjud bo‘lib, ular bevosita muallif yoki uning shogirdlari tomonidan chop etilgan. Darhaqiqat, chop etilgan material va maqolalarning aksariyati ijtimoiy, diniy islohot mavzulariga doir bo‘lib, jamiyatdagi isloh talab masalalarni o‘z ichiga oladi.

Shartli ravishda ajratilgan “chap” guruh vakillarining dunyoqarashi esa asosan xorijda chop etilgan matbuot va yozma asarlar g‘oyalari ta’siri natijasida shakllangan deyish mumkin.

Sharifjon mahdum Sadri Ziyo “*Shuaroyi mutaaxxirin va fuzaloyi muasirin*” asarida eng namunaviy ziyolilarning biografiyasi bayonida keltirilgan tavsif va tasniflariga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir [11]. “O‘ng” tomon guruh vakillari sifatida Sadri Ziyo (1865–1932), Muhammad Ikrom ibn Abdussalam al-Buxoriy (vaf.1925) [13], Abdurahmon Mahdum (vaf. 1918-y.) [12], Ahmad Shoshiy (vaf. 1889) va boshqalarni keltirish mumkin. Ular orasida turli ijtimoiy-diniy masalalarni yoritishda diniy dalillardan faol foydalangan namunaviy ulamo o‘laroq, Muhammad Ikrom ibn Abdussalam al-Buxoriyni e’tirof etish mumkin, u “Domla Ikromcha” nomi bilan ko‘proq mashhurdir. Olimning biografiyasi va asarlari haqida manbalarda ma’lumotlar keltirilgan[1,3]. Uning “*Uyqudagilarni uyg‘otish va johillarga anglatish*” asari [13] o‘z davrida eng mashhur va katta muhokamalarga sabab bo‘lgan [6].

Domla Ikromcha ushbu asarida jamiyat va millatning tanazzulga tortayotgan muammolar hamda ularning kelib chiqish sabablarini ko‘rsatadi. Muallif ularni “*bid’atlar*” deb nomlaydi. Ushbu asar diniy dalillarga asoslangan, ommabop shaklda, bo‘limlarga ajratilgan holda tizimlashtirib bayon etilgan. Undagi

muammolar jamiyatning turli sohalari va qatlamlarini qamrab oladi. Jumladan, ijtimoiy turmushdagi muammolar: ribo, giyohvandlik moddalari iste'moli, g'iybat, g'azab, qahr, gina, hasad, baxillik, takabburlik, maqtonchoqlik, yolg'on, xiyonat, mansabparastlik, *riyo*, xo'jako'rsinlik, erkaklarning ipak, baxmal va zarli kiyimlar kiyishi, kumush va tillodan kamar taqishi kabilar. Mansab lavozimlaridagi muammolar: muftiylarning oqmuhrlari (yozuvsiz, hukm va da'vosiz oq qog'ozga muhr urish va uni ma'lum pul miqdorga sotish), ziyoratgohlarning shayx va eshonlariga beriladigan nazrlar, *rishva* bilan qozilik lavozimiga tayinlanish, vaqf hujralarini sotish yoki ulardan daromad manbai sifatida foydalanish va boshqalar. Ushbu muammolarning ishtirokchilari: manfaatdor va foydalanuvchilari aniq ko'rsatilgan holda tahlil qilinishi natijasida asar muallifi va mansabdorlar o'rtasida ziddiyat, ayniqsa furu' masalalalarida ulamolar o'rtasida ham qarama-qarshi bahslar yuzaga keladi [7]. Ushbu asar va unda keltirilgan ijtimoiy-diniy muammolar, qo'llanilgan diniy dalillar "chap" guruh vakillarining asarlarida, hamda keyinchalik 1943-yil tashkil etilgan O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy idorasining fatvo bo'limi faoliyatiga tayanch manba bo'lgan. Idoraning birinchi raisi Eshon Boboxon (1860–1957) Domla Ikromchaning shogirdi sifatida idorada chop etgan ilk fatvolarida bid'atlar va xurofotlar mavzusi aks etgan[2].

Maqolada islohotchilik harakatining yuzaga kelish omillarini o'rganishda ikki guruh yozma manbalariga tayanildi. Birinchi guruhda Domla Ikromchaning (1855–1925) "*Iyqoz an-noimin va i'lom al-johilin*" ("*Uyqudagilarni uyg'otish va johillarga anglatish*") [13], Sharifjon Maxdum Sadri Ziyo ("Shuaroyi mutaaxxiriyn va fuzaloyi muosiriyn") va ularning izdoshlari tomonidan manbalar jalb etildi. Mazkur manba mualliflari g'oyalarining ko'rinishi, shakllari o'sha davrdagi siyosiy jarayonlar va "inqilobiy g'oya"lardan nisbatan kam ta'sirlangani ko'zga tashlanadi.

Islohotchilik harakati g'oyalarini yoritgan ikkinchi guruh manbalari sifatida Fayzulla Xo'jayevning (1896–1938) *Buxoro inqilobining tarixiga oid materiallar*[6], Sadriddin Ayniyning (1878–1954) *Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar*[9], Laziz Azizzodaning "*Turkiston uyg'onish tarixi*" asari [8], Abdurauf Fitratning "*Munozara*" [15] kabi asarlarni sanab o'tish mumkin.

Bu mualliflarning aksariyati “Yosh buxoroliklar” harakati tarkibida ularning ta’siriga tushib, islohot harakatini siyosiy oqimga aylantirishga urinishdi hamda g‘oyalarning evolyutsiyasi natijasida “inqilobchi” bolsheviklarga qo‘shilib ketishdi. Aynan shu mualliflar (albatta, ularning “hamguruhlari” ham) islohot harakatini “tarraqiyparvar” va “qadimchilar” degan atamalar orqali sun’iy ravishda bo‘lib tashlashgan va so‘ng esa ularni “yaxshi” (demak, shu “inqilobiy islohotchilar”) va “yomon” (“qadimchi/mutaasib”)lar sifatida tavsiflashgan. Tabiiyki, keyingi davrda (ayniqsa sovet davrida) bularning aynan 1920-yillardan so‘ng bitilgan yozma merosi ko‘proq o‘rganilgan, targ‘ib-tashviq etilgan. Ularning ilk asarlaridagi islohotga oid diniy dalillar butunlay chiqarib tashlangan va mazkur holat so‘nggi tadqiqotlarda inobatga olinmagan.

Har holda, mazkur manbalarni o‘rganish *islohotchilik* harakati faoliyati, g‘oyalari va natijalarini mualliflarning qanday tushungani hamda ularning asarlaridagi talqinlarini qiyosiy solishtirish, ularning keyingi evolyutsiyasini kuzatish imkonini beradi.

S.Ayniy o‘zining “Buxoro inqilobining tarixi” asarida islohotchilik g‘oyalarining yuzaga kelish tarixini arablar istilosi davri bilan bog‘laydi. Unga yaqin davrlardagi din va davlat munosabatlaridan boshlasa-da, asarning keyingi o‘rinlari asosan o‘zi to‘qnash kelgan ijtimoiy va ta’lim sohasidagi muammolarni yoritish, amirlikdagi "noinsoniy" munosabatlarini fosh etishga e’tiborni qaratadi. Asarda Buxoroni turg‘un holatdan olib chiqishda kurashgan, xaloskorlar va qahramonlar sifatida yosh buxorolik jadidlar hamda ularga qarshi kurash olib borgan Buxoro amirligining mulozimlari, ayniqsa din peshvolarining aksariyat qismi reaksion ruhoniylar sifatida ko‘rsatiladi.

F.Xo‘jayev esa islohotchilik harakatining yo‘nalishlari, yangi g‘oya tarafdorlari va tashabbusni kim qanday tushuna olganligi hamda qanday munosabat bildirganligi bilan bog‘liq jarayon va bahslarga ko‘proq to‘xtaladi. U o‘sha davrda urf bo‘lgan, jadidchilik mavzusining qahramonlarini e’lon qilishni maqsad qilganligini asar mazmunidan anglash mumkin. Muallif asarining xotima qismida, ushbu harakatga bizdan oldin kirib kelgan aksariyat safdoshlarimiz ushbu

harakatning oxiriga qadar ishtirok eta olmadilar, ular bizning maqsadlarimizni tushuna olmadilar degan mazmunda xulosa qoldirgan[6;125]. Asarda muallif islohotchilik harakatining so‘l qanoti – jadidlar bolsheviklar siyosati bilan hamfikr ekanligini ko‘rsatishga uringan.

F.Xo‘jayevning ushbu asari 20-yillar siyosiy jarayonlariga moslashtirilganligi yaqqol aks etadi. Muallifning vazifasi bolsheviklar hukumati bilan amirlik boshqaruvining katta farqi mavjudlinini ochib beradi. Sobiq hukumatning kamchiliklarini, ijtimoiy qatlamga nisbatan adolatsizlik siyosatlarini fosh etishdan iborat bo‘lganligi tabiiy. U ko‘proq Buxoroning "kapitalistik" boshqaruvning ilk bosqichlarida faoliyat olib borishi, soliq, vaqf, ishlab chiqarish va sanoat borasida kelajagi yo‘q tizim ekanligini namoyon etishni ma’qul ko‘radi.

Amirlikdagi xalq turmushidagi zulmlarni oshkor etilishi ham bolsheviklarning “buyurtmasi” ekanligini anglash qiyish emas. Bularning barchasi yuzaga kelayotgan sotsialistik tuzumni "ideal tizim" sifatida auditoriya onggiga singdirish funksiyasini bajardi.

Islohotlar borasidagi takliflar va bahslar yoritilgan manbalardan yana biri Laziz Azizzodaning “Turkiston uyg‘onish tarixi” nomli qo‘lyozma asaridir [8].

Muallif asosiy islohotchilik harakati ildizlari bevosita mintaqaning ichki intilishlaridan boshlanganligiga ishora qiladi. Buxoroda islohotchilik harakatining rivojiga katta turtki buxorolik Ahmad Donish tomonidan amalga oshirilganligini izohlaydi. Butun Turkistonga mashhur bo‘lgan Ahmad Donish bilan boshqa taraqqiyparvarlar ham yelkadosh bo‘lgan hamda jadidchilik harakatining yuzaga kelishiga, uning g‘oyaviy “ozuqalanishi”ga tashqaridan kirib kelgan matbuot nashrlarining ta’siri katta bo‘lganligini ta’kidlaydi.

L.Azizzoda "yangilik harakati"ning islohotlarga eng yaqin bo‘lgan qayta jonlanishini Amir Umarxon (1787–1822) davri bilan boshlaydi. Amir Umarxon o‘z davrida islohotlarni amalga oshirgan, jumladan, rivojlanish asosini ta’minlovchi tinchlik va osoyishtalik sharoiti, bunyodkorlik va san’at sohalari rivojiga katta e’tibor qaratgan. Ayniqsa, adabiyot sohasi rivoji oldingi davrlarga qaraganda

birmuncha koʻzga koʻrinarlik darajada rivoj topgan. Uning oʻziga xos xususiyati, yoshlarni jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokining ortishi bilan e'tiborli boʻldi.

Biroq, Umarxonning taktikasi keyingi davrda yoʻl qoʻyilgan xatolarga saboq boʻlishiga muallif ishora qiladi. Masalan, Umarxon garchand jamiyatning koʻp sohalarida islohotlarni amalga oshirgan boʻlsada, bu islohotlar evolyutsion yoʻl bilan olib borilgan. Garchand yangilanish jarayonlari bevosita yoshlar bilan bogʻliq boʻlsada, jamiyat "keksalari" boʻlgan din peshvolari bilan hukumat aloqalarining mustahkamligi saqlangan. Jamiyat boshqaruviga, islohotlarga ularni doim jalb etilgan. Biroq keyinga hukumat bir vaqtning oʻzida yoshlarni qoʻllab-quvvatlash va jamiyatning keksa qatlami bilan oʻzaro munosabatlar muvozanatini saqlay olmaganliklari va uning oqibatlarini muallif koʻrsatib oʻtadi.

Muallif Toshkentdagi ilk islohotchilarga ham toʻxtalib oʻtadi. U tatar olimi Shihabiddin Marjaniy bilan birga Buxoroda tahsil olgan toshkentlik Shayx Ahmad Shoshiy faoliyatiga toʻxtaladi. U ham ilk islohotchilik gʻoyalarini oʻzi ta'lim olgan Buxoro madrasalarida boshlagan. Jumladan, Buxorodagi ta'lim tizimining isloh qilishni ilgari surganligi uchun ta'qib qilinadi va Marjaniy bilan birga Buxoroni tark etishga majbur boʻlishadi.

Abdurauf Fitrat oʻzining "Munozara" nomli mashhur asarida jamiyatda, xususan Buxoroda jadid-qadim mojarosiga sun'iy ravishda shakllantirilgan ixtilof sifatida qaraydi [10;46]. Shuningdek, oʻquvchi e'tiborini jamiyat va millatni tanazzulga tortayotgan asosiy omillarga qaratadi.

Markaziy Osiyoning koʻplab ziyolilari zikr etgan yirik islohotchilardan biri, Orenburg Musulmonlar Diniy idorasi muftiysi Rizouddin Faxriddin (1859-1936) XX asr islohotchilik harakatlariga doir qimmatli ma'lumotlarni muharrirligi ostidagi "Shoʻro" jurnalida 1908–1918-yillar davomida yozib qoldirgan. Mazkur jurnalda R.Faxriddinning ijtimoiy, siyosiy va diniy soha muammolari, jadidchilik harakati va mazkur harakat yetakchilari haqidagi koʻplab maqolalari nashr etilgan.

Maqolalarda XX asrning dastlabki davrlarida islohotchilik harakatining yuzaga kelishini qoʻlyozma, toshbosma va bosma uslubdagi tarixiy manbalar vositasida manbashunoslik tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Domla Ikromchaning “Mashhur bid’atlar” nomi bilan shuhrat qozongan asarida keltirilgan aksariyat islohotchilik masalalari Abdurauf Fitratning “Munozara” asarida badiiy hikoya tarzida takrorlangan. Aslida, Domla Ikromcha Buxoro muftiysi, ulamolarning vakili, o‘ng tomon islohotchilaridan bo‘lsa-da, u tomonidan ilk bor ilgari surilgan *bid’at* masalasi, diniy dalillar, yondoshuvlar va talqinlari chap tomon islohotchilarining vakili bo‘lgan Fitratning “Munozara” asarining birinchi qismi sifatida qo‘shimcha misollar bilan bayon etilgan. Mazkur holat, jadidlar o‘z asarlarini yozishda o‘zlaridan oldingi islohotchilarning asarlaridan ta’sirlangan va turli o‘rinlarda foydalangan.

Islohotchilik harakati ko‘p yillar davomida “jadidchilik” bayrog‘i ostida o‘rganildi. Ularga nisbatan tadqiqotlarda “taraqqiyparvar/progressiv”, “milliy g‘oyalarni shakillantiruvchilar” kabi tavsiflar qo‘llandi. Ularning “raqib”lari bo‘lmish “o‘ng” tomondagi islohotchilar esa “qadimchilar”, “mutaasibchilar”, “reaksion ruhoniylar” va boshqa shaklda bayon etilgan. Bunday fikrlar sovet davrida faol bo‘lgan sobiq “jadidlar” tomonlaridan adabiyotlarga kiritilib, islohotchilik harakatining bo‘linishini sun’iy ravishda kuchaytirgan. Shuningdek, marksistik “sinfiy kurash” g‘oyalar asosida shakillangan bu yondoshuvlar sovet mafkurasi va ilmiy yondashuv hamda talqinlariga mos kelgan.

Aslida bu kabi mafkuraviy va siyosiy maqsadga ega bo‘lgan yondashuvlar fan metodologiyasida “konstruktiv yondashuv”dir. Vaholanki, taraflarning g‘oyalari ortida birlashitruvchi va yaqinlashtiruvchi talqinlar ko‘proq edi.

Bu degani “taraflar” orasida bahslar mavjudligini inkor qilish mumkin emas. Aksincha, har bir diniy, siyosiy va ijtimoiy harakatlarda tarafkashlik paydo bo‘lishi tabiiy hol. Ammo ichki evolyutsiya natijasida ma’lum harakatda g‘oyaviy tarqoqlik siyosiy bo‘linishga olib kelsa, “yutgan taraf” albatta g‘oyaviy raqiblarni siyosiy raqibga aylantirib, ulardan distansiya bo‘lish maqsadida aynan “konstruktivizm”ga yo‘l qo‘yildi hamda sun’iy ravishda raqiblarini “yomon va zararli” sinf vakillari sifatida ko‘rsatildi.

Muhammad Ali Baljuvoniyning “Tarixi nofeiy” va Ahmadxon ibn Ismoilxonning “Tazkirat al-inqilob” asarlarini konstruktivizm mazmundagi tarixiy

asarlariga javob tarzida yozilgan ishlar sifatida ko‘rishimiz mumkin. Ushbu asarlar islohotchilik harkatining burilish nuqtasi, islohotdan siyosiy hokimiyat uchun olib borilgan harakat jarayonlarida jadidlar rasmiy hukumat bilan hamkorlikda faol ishtirok etganligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аминов Х. Дамла Икрамча и его произведение о пережитках прошлого (бидъат) // Bulletin Social-Economic and Humanitarian Research, 2020. – № 7 (9). – P. 120-131.
2. Бобохонов Ш. Шайх Зиёвуддинхон ибн Эшон Бобохон. – Тошкент, 2001.
3. Вахидов Ш. Некоторые замечания о жизни и творчестве Домулло Икромче – муфтий Бухары // Номаи донишгоҳ, Таджикистан. – 2018. – №1(54). – Б. 5-15.
4. Махдум, Хасанхон Восилий. Марҳамат илҳомлари (Нашрга тайёрловчи: Хасанов М.). – Тошкент, 2002.
5. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар)Нашрга тайёрловчи: Ҳ. Болтабоев). Т.1. – Тошкент: Маънавият. 2010.
6. خوجايف ف. بوخارا ئنقيلابينڭ ته ئريخيڭه ماترياللار. – تاشكه نت: ئوزبيكستان دولە ت نه شرييياتى، 1926 .
7. داملا, خالمراد. عروة الوثقى. تاشكند: غلامية, 1913. –107 ص
8. عزيززاده, لزيز. توركستاننك اويغانش تأريخى, شرقشوناسليك انستيتوتى قوليازمه فوندى №11895.
9. عه ينى س. بوخارا ئنقيلابى ته ريخى ئوچون ماتيرييالالار.مه سكه ؤ: س س س ر. خه لقلار مه ركه زى نشرييياتى، 1926. – 260 ص
10. فطرت, عبد الرعوف. مناظره. – تاشكند: تركستان كتبخانه سى, 1913. – 40 ص.
11. مخدوم, شريفجان صدر ضيا. تذكرة شعراء متقدمين و سلاطين معاصرين و بزركان متورعين. رقم. 2193-X/شرقشوناسليك انستيتوتى قوليازمه فوندى.
12. مخدوم, عبد الرحمان. عمر معروف ايله نهيي منكر \\ الاصلاح. – 1915. – ص. 575-576.
13. مفتى محمد اكرام. ايقاظ النائمين و اعلم الجاهلين. – سمرقند,1911. – 36 ص